




ISAJON SULTON ROMANLARIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI VA QAHRAMON RUHIYATI EVOLUTSIYASI

Jo'rayeva Surayyo Tolibjonovna

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22154541>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 15-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 29-avgust 2026 yil

KEY WORDS

Isajon Sulton, komil inson, ruhiy evolutsiya, zamonaviy nasr, badiiy talqin, qahramon ruhiyati, ma'naviy kamolot.

ABSTRACT

Ushbu tezisda zamonaviy o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan vakili Isajon Sulton romanlarida badiiy-falsafiy asosni tashkil etuvchi "komil inson" konsepsiyasi hamda qahramonlar ruhiyatidagi ma'naviy-psixologik evolutsiya masalalari tadqiq etiladi. Asarlardagi obrazlar tizimi, qahramonlarning o'z-o'zini anglash bosqichlari, ruhiy poyonozlik va ma'naviy poklanish yo'li ilmiy-badiiy tahlillar orqali yoritib berilgan.

Kirish. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar qahramonining ruhiy dunyosi, uning ma'naviy izlanishlari va shaxs sifatida shakllanish jarayonini tadqiq etish eng asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Istiqlool davri adabiyotida inson omili, uning ichki erkinligi va ruhiy komillikka intilishi yetakchi mavzuga aylandi. Bu borada o'zbek nasrida o'ziga xos uslub va teran ma'naviy-falsafiy qarashlari bilan ajralib turadigan yozuvchi Isajon Sulton ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. Yozuvchining romanlarida komil inson konsepsiyasi shunchaki abstrakt g'oya yoki tayyor ma'naviy andoza emas, balki qahramon ruhiyatidagi murakkab, ziddiyatli va izchil evolutsion jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois Isajon Sulton asarlarida komil inson g'oyasining badiiy talqinini va qahramonlar ruhiyatidagi lirik-psixologik evrilishlarni tadqiq etish hozirgi adabiyotshunoslik uchun har tomonlama dolzarbdir.

Metodologiya va o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida komil inson muammosi va badiiy psixologizm masalalari turli davrlarda tadqiq etilgan. Biroq Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod", "Ma'suma" kabi romanlarida ushbu konsepsiya milliy tasavvufiy an'analar va zamonaviy psixologik tahlil usullari sintezida yangicha ma'no-mohiyat kashf etadi. Tadqiqotda qiyosiy-tiplogik, ruhiy-psixologik hamda hermenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism va tahlil. Isajon Sulton romanlarida qahramon ruhiyati evolutsiyasi bir necha muhim bosqichlarda kechadi: Qahramon dastlab moddiy va ma'naviy dunyo to'qnashuvida chorrahada qoladi. Uning komillik sari yo'li ichki ikkilanishlar, ruhiy iztiroblar va hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishdan boshlanadi. Asardagi voqealar rivoji davomida qahramon tashqi dunyodan ko'ra o'z ichki olamiga nazar tashlaydi. Yozuvchi qahramonning ruhiy kechinmalarini, poyonozliklarini ichki monologlar va ramziy-metaforik tasvirlar orqali ochiqlab beradi. Qahramon ruhiyati ma'lum bir tayyorgarlik va po'latday toblanish

bosqichidan o'tgach, nafsni yengish, ezgulikka xizmat qilish hamda ruhiy poklanish darajasiga yetib boradi.

Yozuvchi asarlarida komil inson – xatosiz yoki benuqson obraz emas, balki o'z xatolarini anglab yetgan, nafs va ruhi o'rtasidagi kurashda ruh g'alabasini ta'minlay olgan tirik shaxsdir. Isajon Sulton qahramonning ruhiy evrilishini tasvirlashda milliy-tasavvufiy poydevorga tayangan holda, zamonaviy insonning ruhiy muammolariga javob izlaydi.

Natijalar va ilmiy yangiligi. Tadqiqot natijasida Isajon Sulton romanlarida komil inson konsepsiyasining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi: Yozuvchi romanlarida qahramon ruhiyati statik (o'zgarmas) emas, balki doimiy harakat va ruhiy rivojlanishda ko'rsatiladi. Komillik g'oyasi tasavvufiy timsollar, mifopoetik unsurlar va zamonaviy psixologik tahlil vositalari uyg'unligida ochib beriladi. Adib asarlaridagi ruhiy evolutsiya markazida insonning o'zligini anglash va Yaratuvchi hamda jamiyat oldidagi ma'suliyatini his etishi yotadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton romanlarida komil inson konsepsiyasi va qahramon ruhiyati evolutsiyasi o'zaro uzviy bog'liq hodisalardir. Yozuvchi badiiy mahorat bilan qahramonning oddiy insoniy holatdan ma'naviy-ruhiy kamolot bosqichiga ko'tarilish jarayonini ishonchli va ta'sirchan tarzda muhrlagan. Bu esa zamonaviy o'zbek romanining inson ruhiyatini va ma'naviy dunyosini tadqiq etish imkoniyatlari nechoqlik kengayganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Sulton, I. "Alisher Navoiy" Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi". – 2022 y
2. Sulton, I. "Boqiy darbadar." Toshkent: "Tilsim": –2023 y
3. Quronov, Dilmurod. "Adabiyotshunoslikka kirish." – Toshkent: "Fan": – 2007.
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-farishta-hikoya>
5. Sulton, I. "Ma'suma". Toshkent: "Dunyo nashr" –2025
6. Valixo'jayev, Botirxon. "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi." – Toshkent: "O'zbekiston" – 2002.
7. Boltaboyev, Hamidulla. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" – 2008.
8. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/abuhomid-g-azzoliy>